

## RANG TASVIR VA RANGLAR UYG'UNLIGI

**Ro'ziyeva shahzoda Dilmurod qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti san'atshunoslik  
kanfederasi 1-kurs 1-24chi guruh talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada rangtasvir va ranglar uyg'unligi borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Rangtasvir, tasviriy san'at, qonuniyat, ranglar uyg'unligi, perspektiva J.Vazariy.*

Rangtasvir xaqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o'rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, hajmi, fazoviy tuzilishi usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq holda har-bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu haqiqiy rangtasviridir. Tasvirda qalamtasvir mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini mukammal ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi. Zamonaviy rangtasvir orqali ijodkor borliqda bo'layotgan jaroyonlarni badiiy yechimlari orqali o'z ijod namunasida ifodalab beradi. Demak ko'rinib turibiki glaballashuv jarayonlar, axborot texnikalarini rivojlanishi, olib borilayotgan islohatlar hammasi ijodkorga tasirini o'tkazadi. Rangtasvir shunday tushunchaki uning maxsulini inson tinglamaydi yoki o'qimaydi balki ko'rish orqali ongli ravishda idrok qiladi.

Rang haqida ilmiy tushuncha bo'lishisidan oldin odamlar yorug'lik va rangalar nisbatini to'g'ri anglab yetmaganlar. Bu haqida J.Vazariy shunday deydi: rassomlar avval faqat bir rangdan foydalanib ishlaganlar, shuning uchun greklar ularni ( monohromatiklar – monos- bir va chroma-rang) deb atalgan. Bu ham yuksak mavqeyga egalikni ko'rsatgan . Keyinchalik Zavkis, Timanov, Palignot, Timanf kabi rassomlar to'rt xil rangdan foydalanganlar. Asarlarni yorqinlashuvi va borliqni o'ziday aks ettirish maqsadida ranglar birbiri bilan uyg'unlashinib yangi turlari yaratilgan. Rang odamlarning his-tuyg'ulari va ruhiy holatiga ta'ir qilishi, rangli tebranishlarning insonga ta'sirini o'rganib, hayotingizni ko'p jihatdan o'zgartirishingiz mumkin. Har bir rangni ohanglari befarkil uyushmalarga ega bo'lib, u shahisning idroki va obyektlarining hajmiga ta'sir qiladi. Rangli tebranishlar susaytirish, qo'zg'atish va o'ziga jalb qiliash yoki chalg'itishi mumkin. Rang palitrasi bo'yida to'xtatilgan harakatlar taskin topadi, aks ettirish va ijodkorlikka hissa qo'shadi. Rang vibratsiyalari insonni fiziologiyasiga ta'sir qilib uni ruhiy holatini o'zgartirishi mumkin. Shu jihatdan raglar issiq va sovuq ranglarga bo'linadi.

Issiq ranglar- qizil, bordo, to'q sariq, sariq, jigarrang, kulrang va boshqalar.

Sovuq ranglar- oq, moviy, yashil, qora, ko'k va boshqa ranglar kiradi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'zni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi: «Bu yuz foiz qalamtasvir va yuz foiz rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir». Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'zni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom, qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni buyumlarning fazoviy joylashu-vi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jixatdan ijodkorga bog'liq.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, devor, oyna va yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Xar qanday rangtasvir ishida avvalo uni (risunka) yani qoralama holati ishlab olinadi. Shundan so'ng kompazitsiya (joylashuv) amalga oshirilib ranglar orqali nur va soya texnikalari qo'llaniladi. Rangtasvir asarlari bajarilishi tehnikasi jixadidan turlicha bo'lib, moy bo'yoqli, temperali, freskali, mazaykali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo'lishi mumkin. Rangtasvir quydagi turlarga bo'linadi.

1. Dastgohlik rangtasvir
2. Monumental ( maxobatli ) rangtasvir
3. Miniatyura ( mo'jaz ) rangtasvir
4. Dekorativ ( bezak ) rangtasvir
5. Teatr-dekorativ ( bezak ) rangtasvir

Hozirgi kunda zamonaviy san'atning tez suratlarda o'sib borishi yangi yo'l va yangi g'oyalarni kashf qilmoqda. Bu esa san'at ijodkorlarini yanada ko'proq ishlashiga va xalqni ko'proq harakat qilishga undamoqda. San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rango-rang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi.

Rang uyg'unligi har qanday san'at asarining muhim elementidir. U san'at asari qanday idrok etilishini va u kerakli xabarni tomoshobinlarga muvaffaqiyatli yetkazishini aniqlashi mumkin. Ranglarni to'g'ri tanlash va qo'llash hissiyotlarni keltirib chiqarishi, kayfiyatni ko'rsatishi va hatto tomoshabinning psixologik ta'sir qilishi mumkin. Rassomlar uchun bir-birini to'ldiruvchi, o'xshash va triadik kabi turli xil ranglar uyg'unligi va ularning har biri o'z ishining umumiy estetikasiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tushunish muhimdir. Qarama-qarshilik yoki ranglarni aralashtirish orqali ranglarning to'g'ri kombinatsiyasi san'at asarining muvaffaqiyatida seziladi.

Rang uyg'unligining eng keng tarqalgan turlari o'xshash, to'ldiruvchi va triadikdir.

O'xshash: qizil, to'q sariq va sariq kabi diapazondagi o'xshash ranglardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

-To'ldiruvchi: qizil va yashil kabi ranglar g'ildiragida bir-biriga qarama-qarshi ranglardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

-Triadik: sariq, qizil va ko'k kabi rang g'ildiragida bir xil masofada joylashgan uchta rangdan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Rang uyg'unligi san'at olamida muhim rol o'ynaydi. Bu tomoshabinning hissiy munosabatiga ta'sir qiladi, asarning kayfiyati va xabarini etkazadi. Rang uyg'unligidan to'g'ri

foydalanish muvozanat va hissiyotni birgalikda yaratadi, tomoshabinni badiiy asarni anglashga majbur qiladi. Rang rassomning xabarini etkazishda muhim rol o'ynaydi va ranglar uyg'unligidan to'g'ri foydalanish tomoshabinlardan kerakli hissiy munosabatni ta'minlashda juda muhimdir. San'at asarini yaratishda rassom mo'ljallangan mavzu, kayfiyat va xabarga mos keladigan rang uyg'unligini diqqat bilan tanlaydi. Muvaffaqiyatli ranglar uyg'unligi tomoshabinning e'tiborini tortadigan jozibador va yoqimli kompozitsiyani yaratadi, ularning ko'zlari asarni kuzatishga imkon beradi, chunki u hissiy munosabatni uyg'otadi. Ranglarning uyg'unligi tomoshabinni san'at asari haqida o'ylashga undashi va rassomning xabarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Aslini olganda, ranglar uyg'unligi abadiy taassurot qoldirishi mumkin bo'lgan san'at asariga hayot va hayajon bag'ishlaydi.

Shuni aytish joizki, tasviriy san'atda ranglar uyg'unligi inson psixologiyasiga ijobiy ham, salbiy ham ta'sir qilishi mumkin. Ranglar uyg'unligi natijasida olam va mantiqiy jihatdan koinotni, borliqni, tasavvurimizdagi noaniq va turli xil qiyin shakllarning fazoviy ko'rinishini anglashga, inson ruhiyatini tushunishga imkon beruvchi vosita hisoblanadi. Masalan 1, 2, 3 – rasmlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak ular orasida o'xshashlik ko'k rang bo'lsa, orada qizil, sariq va yashil ranglarning qo'shilishi bilan inson ruhiyatiga 1-rasm tinchlantiruvchi, 2-rasm jo'shqinlik beruvchi, 3-rasm esa o'ynoqi holatlarni aks ettiradi va mana shuning o'zidan anglash mumkinki, ranglar uyg'unligida bir dona bo'lsa ham rang kam yoki ko'pligi rasmni tomoshobin tomonidan anglanishi va ruhiy-psixologik holatiga katta ta'sir o'tkazadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.Hasanov "Tasviriy san'at asoslari" Toshkent-2009 Sahifalar: 44-5
2. Ахмедова Н.Р. Рассом – давр – тарих. // SAN'AT. – Тошкент, 2004. – №2. – Б.20
3. Кончаловский, П.П. Мысли о художественном творчестве М.: 1984, С.27
4. Ўзбекистон тасвирий санъати антологияси. 1 жилд. Рангтасвир. –Тошкент: Кўхи Нур, 2009. – 334 б.
5. Н.Д.Абдуллаева "Искусство стран и народов мира" Москва-1999 Страницы: 218-224